



ABU BAKR HADDOD ZABIDIY AND HIS CONTRIBUTION TO ISLAMIC JURISPRUDENCE: THE “AL-JAVHARATU-N-NAYYIRA” WORK AND ITS HISTORY

Qosim Abdullo

Doctoral student, Lead Specialist

International Islamic Academy of Uzbekistan

Fatwa Center of the Spiritual Administration of Muslims of Uzbekistan

Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: Abu Bakr Haddod Zabidiy, al-Javharatu-n-nayyira, fiqh, Hanafi school, Muxtasaru-l-Quduriy, tafsir, work, Muslim Board of Uzbekistan, printed edition, manuscript copies, scholarly annotations, Abu Bakr Haddod, Zabid.

Received: 13.01.24

Accepted: 15.01.25

Published: 17.01.25

Abstract: Abu Bakr Haddod Zabidiy, a prominent scholar in the fields of fiqh and tafsir, made significant contributions to Hanafi jurisprudence through his work al-Javharatu-n-nayyira. This book, a commentary on the Muxtasaru-l-Quduriy, was written in Arabic and covers various topics in Islamic jurisprudence. The printed edition of this work is preserved in the library of the Muslim Board of Uzbekistan and includes the author's biography and the scholarly significance of the text. Abu Bakr Haddod Zabidiy dedicated his life to seeking knowledge and worshiping Allah. This work has numerous manuscript copies held in libraries worldwide, many of which were copied between the years 950 and 1114 Hijri. The book is written in a reader-friendly style, enriched with academic annotations.

ABU BAKR HADDOD ZABIDIY VA UNING FIQH ILMIGA QO‘SHGAN HISSASI: “AL-JAVHARATU-N-NAYYIRA” ASARI VA UNING TARIXI

Qosim Abdullo

tayanch doktorant, yetakchi mutaxassis

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

O‘zbekiston musulmonlari idorasi Fatvo markazi

O‘zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Abu Bakr Haddod Zabidiy, al-Javharatu-n-nayyira, fiqh, hanafiy	Annotatsiya: Abu Bakr Haddod Zabidiy, fiqh va tafsir ilmida ko‘plab muhim
--	--

mazhabi, Muxtasaru-l-Quduriy, tafsir, asar, O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasi, toshbosma nusxa, qo'lyozma nusxalar, ilmiy izohlar, asar tarixi, Abu Bakr Haddod, Zabid.

asarlar yaratgan olim, o'zining "al-Javharatu-n-nayyira" asari bilan hanafiy fiqhining rivojiga katta hissa qo'shgan. Ushbu asar, "Muxtasaru-l-Quduriy" kitobining sharhi bo'lib, arab tilida yozilgan va fiqh ilmining turli mavzularini o'z ichiga olgan. Asar, O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanadigan toshbosma nusxada mavjud bo'lib, unda muallifning tarjimai holi va asarning ilmiy ahamiyati haqida ma'lumotlar ham keltirilgan. Abu Bakr Haddod Zabidiy ilmiy hayatini Alloha ibodat va ilm o'rganishga bag'ishlagan. Ushbu asar dunyo kutubxonalarida saqlanayotgan ko'plab qo'lyozma nusxalariga ega bo'lib, ularning ba'zilari hijriy 950-1114 yillar orasida ko'chirilgan. Asar har bir qismida o'qish uchun qulay tarzda yozilgan va ilmiy izohlar bilan boyitilgan.

АБУ БАКР ХАДДОД ЗАБИДИЙ И ЕГО ВКЛАД В ИСЛАМСКОЕ ПРАВО: ПРОИЗВЕДЕНИЕ “AL-JAVHARATU-N-NAYYIRA” И ЕГО ИСТОРИЯ

Косим Абдулло

Докторант, Ведущий специалист

*Международной исламской академии Узбекистана
Центра фетв Управления мусульман Узбекистана
Узбекистан, Ташкент*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Абду Бакр Хаддод Забидий, al-Javharatu-n-nayyira, фикх, ханефийский мазхаб, Muxtasaru-l-Quduriy, тафсир, труд, Мусульманское управление Узбекистана, печатное издание, рукописные копии, научные примечания, Абду Бакр Хаддод, Забид.

Аннотация: Абду Бакр Хаддод Забидий, выдающийся ученый в области фикха и тафсира, внес значительный вклад в развитие ханефийского права через свою работу al-Javharatu-n-nayyira. Эта книга является комментариями к Muxtasaru-l-Quduriy и написана на арабском языке, охватывая различные темы исламского права. Печатное издание этого труда хранится в библиотеке Мусульманского управления Узбекистана и включает биографию автора и научную значимость текста. Абду Бакр Хаддод Забидий посвятил свою жизнь изучению знаний и поклонению Аллаху. Эта работа имеет многочисленные рукописные копии, хранящиеся в библиотеках по всему миру, многие из которых были переписаны в период с 950 по 1114 годы хиджры. Книга написана в удобном для чтения стиле и обогащена научными примечаниями.

KIRISH

Fiqh ilmining yirik namoyandalaridan biri Abu Bakr Haddod Zabidiy o‘z faoliyati davomida bu sohada ko‘plab muhim asarlar yozib qoldirgan. Shuningdek, u tafsir ilmida ham e’tiborga molik asarlar yaratgan. U yaratgan asarlar ichida fiqhga oid eng mashhurlaridan biri bu “al-Javharatu-n-nayyira” nomli asar hisoblanadi. Ushbu asar fiqh ilmiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda muallif hanafiy mazhabining qoidalarini yoritgan. Asar arab tilida yozilgan bo‘lib, muallif o‘zining keng ilmiy salohiyati va o‘ziga xos uslubidan foydalangan.

Bugungi kunda Abu Bakr Haddodning “al-Javharatu-n-nayyira” nomli asarining toshbosma nusxasi O‘zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanmoqda. Ushbu kitob kutubxonadagi qadimiy ilmiy boyliklardan biri bo‘lib, u 526-G raqam bilan ro‘yxatga olingan. Mazkur asar ikki juzdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismi tahorat kitobidan boshlanib, havola kitobigacha bo‘lgan mavzularni o‘z ichiga oladi. Ikkinci juz esa nikoh kitobidan meros kitobigacha bo‘lgan qismni qamrab oladi. Ushbu mazmuniy taqsimot kitobning muhim fiqhiy mavzularni yoritishga qaratilganligini ko‘rsatadi.

ASOSIY QISM

Kitob hijriy 1321 yilda chop etilgan bo‘lib, umumiy hajmi 885 betdan iborat. Birinchi juzning hajmi 485 bet, ikkinchi juzning hajmi esa 402 betdan tashkil topgan. Har bir sahifada 32 qatordan matn joylashtirilgan. Bu esa toshbosma nusxaning o‘qilishi qulay va tartibli ekanligini ko‘rsatadi. Kitob yaxshi holatda saqlangan bo‘lib, uning o‘lchami 15x26,5 smni tashkil etadi. Ushbu o‘lcham toshbosma asarlar uchun odatiy hisoblanadi.

Asarning mazmuniy jihatiga kelsak, kitobning asosiy matn qismi “al-Javharatu-n-nayyira” asaridan iborat. Kitobning hoshiya qismiga esa mashhur hanafiy olimi Abdulg‘aniy Maydoniyning (vaf. 1298 h.y.) “al-Lubob fi sharhi-l-kitob” nomli sharhi kiritilgan. Bu sharh Quduriy asarining izohi sifatida yozilgan bo‘lib, muallifning fikrlarini to‘ldiradi va kitobning ilmiy qiymatini oshiradi.

Kitobning tashqi ko‘rinishi ham yaxshi saqlangan. Uning muqovasi qattiq materialdan tayyorlangan bo‘lib, bu narsa kitobning uzoq vaqt saqlanishiga xizmat qilgan. Biroq, asarning muqaddima qismi bugungi kunga qadar saqlanib qolmagan, natijada kitobning matni to‘g‘ridan-to‘g‘ri uchinchi betdan boshlanadi.

Asar yakunida muallifning tarjimai holi haqida ma’lumot keltirib o‘tilgan[1].

Asarning zamonaviy nusxalari

“al-Javharatu-n-nayyira” kitobi 3 bora nashr etilgan:

1. 800 sahifadan iborat ikki mujalladda – birinchisi 382, ikkinchisi 420 sahifadan iborat. Bu nashr Usmoniy tab’asida hijriy 1301 yilda Bobi Ali yaqinida joylashgan “Mahmudbek” matbaasida chop etilgan.

2. Bu nashr Maydoniyning “al-Lubob fi sharhi-l-kitob” asari bilan birgalikda chiqarilgan. Bu kitob ham ikki mujalladdan iborat bo‘lib, hijriy 1316 yilda usmoniy tab’asida Istanbulbuldagi “Omira” matbaasida chop etilgan.

3. Hijriy 1328 yilda Hind diyoridagi Dehli shahrida chop etilgan.

Imom Abu Bakr Haddod Zabidiy umrini ilm, unga amal qilish, Alloh taologa toat-ibodat bilan qurbat hosil qilish yo‘lida o‘tkazdilar. U zot husni xulq sohibi edi. Vafotidan oldin ko‘zlar ojiz bo‘lib qoldi. So‘ng olim hijriy 800 yil jumodul ulo oyining oltinchi kuni shanba kechasida olamdan o‘tdi. Vafot etgan paytida u zotning yoshi 80 da edi. U zot Zabid shahridagi “Qartab eshigi” qabristoniga dafn etilgan.

Alloma Abu Bakr Haddod hanafiy mazhabidagi mo‘tabar matn kitoblaridan biri bo‘lmish “Muxtasuru-l-Quduriy” kitobini sharhlagan faqihlardan biri hisoblanadi. U kishi avvaliga “as-Siroju-l-vahhoj” nomli kitob yozgan. Bunda u yuqorida aytigan kitobni keng tarzda sharhlagan. So‘ngra undagi masalalarни qisqartirib “al-Javharatu-n-nayyira” nomli kitob ta’lif qilgan. Ushbu ikkala asardan hanafiy mazhabi manbalarida ko‘plab iqtiboslar keltiriladi.

Tarixchi Xazrajiy “al-Uqudu-l-lu’luiyya” kitobida shunday degan: “U kishining yaxshi kitoblari bor bo‘lib, Zabid ahli ular sabab fiqhni o‘rganishgan va talabalar ko‘plab manfaat olganlar”[2].

“Tabaqotu-l-xavos” kitobida kelishicha, u zot yozgan asarlari taxminan 20 mujalladga teng keladi[3].

Abu Bakr Haddod Zabidiy xususan fiqhda, qolaversa tafsir ilmida ham ko‘plab kitoblar yozgan. Jumladan, olimning “al-Javharatu-n-nayyira” nomli asari fiqh ilmiga bag‘ishlangan. Muallif ushbu asarini bitishda arab tilidan foydalangan.

Bu kitob “Muxtasaru-l-Quduriy” kitobining sharhi bo‘lib, muallif bunda “as-Siroju-l-vahhoj” kitobini muxtasar qilgan[4].

“al-Badru-t-toli” kitobida Shavkoniy aytadi: “Abu Bakr Haddodning “Muxatasu-l-Quduriy” kitobiga yozgan ikki – katta va kichik sharhi bor”[5].

“al-Javharatu-n-nayyira” asarining juda ko‘plab qo‘lyozma nusxalari dunyo kutubxonalarida saqlanadi. Bu haqida “al-Fihrisu-sh-shomil” kitobida ham ma’lumotlar keltirib o‘tilgan[6]. Ushbu kitobda asarning 100 ga yaqin nusxalari mavjudligi aytib o‘tilgan.

1. Hijriy 950 yilda ko‘chirilgan nusxasi. Ushbu nusxa 290 varaqdan iborat bo‘lib, har bir sahifada 35 qator mavjud. Bu nusxaning asli Istanbulbuldagi Kuprili kutubxonasiда saqlanadi.

2. Hijriy 974 yilda ko‘chirilgan nusxasi. Ushbu nusxa 313 varaqdan iborat bo‘lib, har bir sahifada 35 qator mavjud. So‘zlarning harakatlari kam o‘rinlarda qo‘yilgan. Hoshiya qismida ba’zi ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. “al-Javhara” asari matni aksar o‘rinlarda to‘g‘ri va to‘liq

keltirilgan. Unda iboralar tushib qolish holati uchramaydi. Bu nusxa Saudiya Arabistoniga poytaxti Riyoz shahrining Podshoh Faysal markazida saqlanadi.

3. Hijriy 977 yilda ko‘chirilgan nusxasi. Ushbu nusxa 400 varaqdan iborat. Har bir sahifada 23 qator mavjud. Har bir qatorda 11 ta so‘z kelgan. Ushbu nusxa boshqa nusxalardan ajrab turadi, yozuvi ham nihoyatda chiroyli. Unda so‘zlardagi harakatlar deyarli uchramaydi. Ushbu nusxaning elektron varianti Istanbuldagi shayxul islam Fayzulloh afandi kutubxonasida ham Ummul Quro universiteti qoshidagi podshoh Abdulloh ibn Abdulaziz kutubxonasida saqlanadi.

4. Hijriy 977 yilda ko‘chirilgan nusxasi. Ushbu nusxa 364 varaqdan iborat. Har bir sahifada 33 qator mavjud. Har bir qatorda 12 tadan so‘z yozilgan. Bu nusxa ham boshqa nusxalardan ajralib turadi hamda yozuvi juda chiroyli. Unda so‘zlarga harakatlar qo‘yilmagan. Dubay shahridagi Mojid universiteti markazida uning elektron nusxasi saqlanadi. Qo‘lyozmaning asl nusxasi esa Turkiyadagi G‘oziy Xusrav kutubxonasida mavjud.

Ushbu qo‘lyozma asarning egasi kitobdan ko‘p foydalangani ko‘rinib turadi. Unga foydali hoshiya va ta’liqlar yozgan. Matndagi xatolarga tuzatish kiritib ketgan.

5. Hijriy 1031 yilda ko‘chirilgan nusxa. Ushbu nusxa 345 sahifadan iborat bo‘lib, har bir sahifada 33 qator mavjud. Ko‘pgina so‘zlarning harakatlari qo‘yib ketilgan. Kitobda Quduriy matnnini “al-Javhara” matnidan ajratib turadigan chiziq tortilgan. Ushbu nusxaning elektron shakli Makka shahridagi Ummul Quro universiteti kutubxonasida mavjud.

6. Hijriy 1041 yilda ko‘chirilgan nusxa. Ushbu nusxa 314 varaqdan iborat bo‘lib, har bir sahifada 31 qator mavjud. Har bir qatorda 16 ta so‘z yozilgan. Kitobning 55 varag‘iga qadar so‘zlarning harakatlari qo‘yilgan. Qolgan qismiga harakatlar qo‘yilmagan. Ushbu nusxaning elektron shakli Istanbuldagi shayxul islam Fayzulloh afandi kutubxonasida mavjud. Shuningdek, Ummul Quro universiteti qoshidagi podshoh Abdulloh ibn Abdulaziz kutubxonasida ham elektron shakli bor.

7. Hijriy 1058 yilda ko‘chirilgan nusxa. Ushbu nusxa ikki juzdan iborat. Birinchisi 124-raqam bilan saqlanadi. Unda 383 varaq bor. Har bir sahifada 24 qator mavjud. Ikkinci juz esa, 125-raqam bilan saqlanadi. U 387 varaqdan iborat bo‘lib, har bir sahifada 24 qator bor. Ushbu ikkinchi juz “Vadia kitobi”dan boshlanadi. Bu nusxa to‘liq va shikastlanmagan holda saqlangan bo‘lib, Madinai munavvaradagi podshoh Abdulaziz kutubxonasida saqlanadi.

8. Hijriy 1070 yilda ko‘chirilgan nusxa. U 381 varaqdan iborat bo‘lib, har bir sahifada 33 qator mavjud. Elektron shakli Riyozdagagi podshoh Faysal xayriya markazida mavjud.

9. Hijriy 1097 yilda ko‘chirilgan nusxa. Ushbu nusxa 392 varaqdan iborat bo‘lib, har bir sahifada 33 qator mavjud. Bu nusxa ham juda yaxshi saqlangan. Uning asl nusxasi Madinai munavvaradagi podshoh Abdulaziz kutubxonasida 447-raqam bilan saqlanadi.

10. Ushbu nusxada kitobning faqatgina birinchi juzi mavjud. Unda nusxa ko‘chirilgan sanasi yozilmagan. 185 varaqdan iborat bo‘lib, har bir sahifada 29 qator bor. Uning elektron shakli Dubaydagi Mojid universiteti markazida saqlanadi. Bu nusxada kitobning avvalidan “muzoraa kitobi”gacha mavjud. Uning chetlari Quduriy matni va uning sharhini izohlashda foydali bo‘lgan hoshiyalarga to‘la. Yozuvi yomon emas, rangli.

11. Ushbu nusxada kitobning faqatgina birinchi juzi mavjud. Unda nusxa ko‘chirilgan sanasi yozilmagan. 265 varaqdan iborat. Yozuvi juda yaxshi. Ushbu nusxaning elektron shakli Riyozdagi podshoh Saud universitetida saqlanadi. Kitob “Vakolat kitobi”ning oxirida tugaydi. Bu taxminan “al-Javhara”ning uchdan bir qismiga to‘g‘ri keladi.

12. Taxminan hijriy 1068 yilda ko‘chirilgan nusxa. Ushbu nusxada kitobning faqatgina ikkinchi juzi mavjud. U 287 varaqdan iborat bo‘lib, har bir sahifada 23 qator bor. Kitob “Nikoh kitobi”dan boshlanib, “al-Javhara”ning oxiriga mavzulari bor. Ushbu nusxaning elektron shakli Dubaydagi Mojid universiteti markazida saqlanadi. Bu nusxa ham tushunarli nusxalardan biri hisoblanadi.

13. Hijriy 1111 yilda ko‘chirilgan nusxa. U 371 varaqdan iborat bo‘lib, har bir sahifada 33 qator mavjud. Ushbu nusxa eng yaxshi nusxa hisoblanadi. Faqatgina muammoli so‘zlardan boshqa so‘zlarga harakatlar qo‘yilmagan. Uning matni to‘g‘ri yozilgan, tushib qolgan o‘rinnlar uchramaydi. Chekkasida matnga tuzatishlar kiritilgan.

14. Hijriy 1114 yilda ko‘chirilgan nusxa. Ushbu nusxa 374 varaqdan iborat bo‘lib, har bir sahifada 35 qator mavjud. Bu nusxa ham tushunarli, chiroyli yozuvda yozilgan. Uning asli Madinai munavvaradagi Orif Hikmat kutubxonasining fiqh bo‘limida 81/254 raqami bilan saqlanadi.

XULOSA

Asarning toshbosma nusxalari esa uch marta bositgan. Ular quyidagilar:

1. 800 sahifadan iborat ikki mujalladdan iborat. Birinchisi 382, ikkinchisi 420 sahifadan iborat. Bu nashr Usmoniy tab’asida hijriy 1301 yilda Bobi Ali yaqinida joylashgan “Mahmudbek” matbaasida chop etilgan.

2. Abdulg‘aniy Maydoniyning “al-Lubob fi sharhi-l-kitob” asari bilan bиргаликда чиқарилган. Bu kitob ham ikki mujalladdan iborat bo‘lib, hijriy 1316 yilda Usmoniy tab’asida Istanbuldagi “Omira” matbaasida chop etilgan.

3. Abdulg‘aniy Maydoniyning “al-Lubob fi sharhi-l-kitob” asari bilan bиргаликда чиқарилган. Bu nashr hijriy 1321 yil Ushbu nusxa O‘zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanmoqda. Ushbu asar mazkur kutubxonada 526-G raqamda saqlanadi. Kitob 2 juzdan iborat bo‘lib, 1-juz tahorat kitobidan havola kitobigacha, 2-juz nikoh kitobidan meros

kitobiga qadar mavzularni qamrab olgan. Asar hijriy 1323 yilda Muhammad Orif matbaasida boshilgan.

Ushbu nusxaning umumiy hajmi 885 betdan iborat bo‘lib, uning 1-juzi 485 betni, 2-juzi 402 betni tashkil etadi. Har bir sahifaga 32 qatordan matn joylashtirilgan. Toshbosma asar yaxshi holatda saqlangan[7]. Asarning o‘lchami 15x26,5 smdan iborat.

Ushbu nusxada kitobning asosiy qismiga “al-Javharatu-n-nayyira” asari, kitobning hoshiya qismiga “Quduriy”ning Abdulg‘aniy Maydoniyning (vaf. 1298 h.y.) “al-Lubob fi sharhi-l-kitob” asari kiritilgan. Muqovasi qattiq. Kitobning muqaddima qismi saqlanmagan. Kitob 3-betdan boshlangan.

Asar yakunida muallifning tarjimai holi haqida ma’lumot keltirib o‘tilgan[8].

4. Hijriy 1328 yilda Dehli shahrida chop etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон мусулмонлари идораси кутубхонасидаги 526-Г рақамли нусха.
2. Уқуду-л-луълийя фи-д-давлати-р-расулийя. Муваффикуддин Али ибн Ҳасан Ҳазражий Забидий. Ҳилол нашриёти. Қоҳира. 1329. 2-жилд. 296-бет.
3. Табақоту-л-хавос. Аҳмад ибн Аҳмад ибн Абдуллатиф Шаржий Забидий. Дору-л-яманийя. 1406. 392-бет.
4. Кашфу-з-зунун. Ҳожи Халифа. Маориф вакиллиги. Туркия. 2-жилд. 1631-бет.
5. Дору-л-маърифа. Байрут. 1-жилд. 166-бет.
6. 3-жилд, 313-бет.
7. Ўзбекистон мусулмонлари идораси кутубхонасидаги 526-Г рақамли нусха.
8. Ўзбекистон мусулмонлари идораси кутубхонасидаги 526-Г рақамли нусха.